

UCHINCHI RENESANSNI BARPO ETISHDA TALABA YOSHLARNING SHAXSIY VA KASBIY TASHABBUSLARI

Muxamadaliyeva Mohira Xikmatullayevna

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari

Normamatova Yulduz

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7445032>

Annotatsiya. Talaba yoshlar orasida ilm-fan va innovatsiya jarayonini targ'ib qilish yuzasidan noan'anaviy usullari va innovatsiyada buyuk ajdodlarimizning qo'shgan hissasining izini topish va aniq misollarda yoritish, talaba yoshlarning ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarini o'rganish, ularni hozirgi kunda qo'llanishi bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqishda keng imkoniyatda ishlar olib boorish kerak. Ta'lim sifatini oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarni keltirish va ularning yechimlari bo'yicha asosli takliflar berish, ta'limda sifatli bilim olishni tashkil etishda talaba yoshlarning shaxsiy motivatsiyasini oshirish, shuningdek, o'quv jarayoni va metodikasini o'zgartirish bo'yicha takliflar (asosnomasi bilan) ishlab chiqish, mamlakatda ta'lim sifatini yanada oshirish bo'yicha zamon talablariga mos bo'lgan milliy model taklifini berish biz yoshlarning qo'lidadir.

Kalit so'zlari: renesans, shaxs, talaba, taraqqiyot, ta'lim, g'oya, millat, milliylik

ЛИЧНОСТНЫЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ИНИЦИАТИВЫ СТУДЕНТОВ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Аннотация. В целях популяризации процесса науки и инноваций среди студентов, найти следы вклада наших великих предков в инновации и найти конкретные примеры, изучить достижения студентов в области науки и инноваций, применить их сегодня. Необходимо провести большую работу по разработке конкретных механизмов ее реализации. Приведение проблем, являющихся препятствием к повышению качества образования, и внесение обоснованных предложений по их решению, повышение личной мотивации обучающихся в организации получения качественных знаний в образовании, а также изменение учебного процесса и методики. В наших руках, молодых людях, разработать предложения (с обоснованием), предоставить национальное типовое предложение, отвечающее требованиям времени, для дальнейшего повышения качества образования в стране.

Ключевые слова: ренессанс, человек, ученик, прогресс, образование, идея, нация, национальность.

PERSONAL AND PROFESSIONAL INITIATIVES OF YOUTH STUDENTS IN BUILDING THE THIRD RENAISSANCE

Abstract. In order to promote the process of science and innovation among students, to find traces of the contribution of our great ancestors in innovation and to find concrete examples, to study the achievements of students in the field of science and innovation, to apply them today. It is necessary to carry out extensive work on the development of specific mechanisms for its implementation. Bringing the problems that are an obstacle to the improvement of the quality of education and making reasonable proposals for their solutions, increasing the personal motivation of students in the organization of obtaining quality knowledge in education, as well as changing the educational process and methodology. It is in

the hands of us young people to develop proposals (with rationale), to provide a national model proposal that meets the requirements of the time to further improve the quality of education in the country.

Keywords: *renaissance, person, student, progress, education, idea, nation, nationality*

Taraqqiyot formulasi

Har bir insonning o'z hayot falsafasi va yo'li bo'lganidek, har bir davlatning o'z taraqqiyot strategiyasi bo'ladi. Buni belgilashda esa faqat millat yetakchilarining salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga jazm qilgan ekanmiz, birinchi galda ta'lim-tarbiya masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishimizga to'g'ri keladi. Ta'lim deganda men nainki ongimizga mahkam o'rnatilgan Maktabgacha ta'lim tashkiloti–maktab – o'rta maxsus – oliy ta'lim tizimini, balki, keng ma'noda, ma'rifatli jamiyat qurish, odamlarning ilmga munosabatini o'zgartirish masalasini ham nazarda tutmoqdaman. Mana shunday go'zal jannatmakon yurtda biz tug'ulganimiz va uchinchi renessansni barpo etishda biz yoshlar ham o'z xissamizni qo'sha olishimiz biz uchun albatta katta sharafdir.

“Renessans” so'zi – fransuzcha “Renaissance”, italyanacha – “Rinascimento” – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq, qayta tirilish, uyg'onish – degan ma'nolarni anglatadi.

Bugungi kunga kelib biz yoshlar uchun mana shunday keng imkoniyatlar yaratilib berilayotgan bir davrda biz yoshlar o'z ustimizda tinimsiz ishlashimiz, o'qib o'rganishimiz, izlanishimiz zarur. O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho'qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimizning shakllanishi, jamiyatda ilmu fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo'shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi. Matonatli xalqimiz esa azal-azaldan o'zgarish va qiyinchiliklarga tayyor bo'lgan. Bilamizki, jamiyat hech qachon bir joyda turmaydi va doim rivojlanish hamda yangilanishga intiladi. Shu sababli - qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar o'zgaradi. Biz yoshlar esa – shu taraqqiyot va o'zgarishlarni harakatlantiruvchi kuchi, asosidirmiz. Muhtaram Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida,- “Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan paytda, mamlakatimizda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, yoshlar esa, Vatanimizning eng katta kuchi, boyligi, bebaho xazinasidir,- deb bejiz ta'kidlamadi. Darhaqiqat, mamlakatimizning kelajak ravnaqi va rivojlanishi biz yoshlarning bilim va ma'naviyatimizga bog'liqdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek uzluksiz ta'limning poydevori bu maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanadi. Hozirgi kunga kelib maktabgacha ta'lim tashkilotlarigga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirilmoqda bu qamrovni kengaytirish borasida ko'plab chora tadbirlar ko'rilmogda va o'zining samarali ko'rsatkichini berib kelmoqda. Albatta, ta'lim tarbiya jarayonlari avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanadi. Biz oliy ta'limni tamomlab har tomonlama yetuk pedagog kadr bo'lar ekanmiz o'z oldimizga katta maqsad qo'yishimiz va demokratik davlat qurishdagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash, chuqur bilimga ega bo'lgan tashabbuskor, shijoatli yoshlar faolligini oshirish hamda ular safini kengaytirish masalasi, albatta, biz, uchun yuksak kasbiy mahorat talab etuvchi vazifa hisoblanadi. Ko'hna moziy

guvohki, dunyoni doimo g'oyalar boshqargan. G'oyalar esa mudom bilim, tafakkur va aql kuchiga suyangan. Bugungi rivojlanish shiddati tez, ilm ufqlari kengayib borayotgan zamonda, qolaversa, axborot vositalari taraqqiy etgan davrda g'oyalar uchun kurash ham birmuncha murakkabliklar hamda o'tkir fikrlashni talab qilishi tayin. Ammo insoniyat o'z tabiatiga ko'ra, baribir bir ezgu g'oyaga muhtojlik sezib yashaydi. Shu ma'noda, bugun yangi O'zbekiston tarixi zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla — «Uchinchi Renessans» tagmatnida ana shunday ulug' bir ezgulikni, buyuk bir kuchni anglashimiz mumkin.

Zero, renessans — uyg'onish demakdir. Ya'ni ilmiy uyg'onish, ma'rifatni anglash va shu asnoda asrlarga teng yillarni lahzalarda bosib o'tmoq demakdir. Bu jarayonni boshlab berish, uning poydevorini qo'yish esa kamdan-kam insonlarga nasib etgan. Buning uchun, avvalo, Alloh bergan inoyat, so'ngra millatni sevishtirish, samimiy insonparvarlik tuyg'usi mujassam bo'lmog'i darkor insonda. Bugun biz ana shunday qutlug' bir davrda, dunyoga yangi O'zbekiston nomi bilan tanilayotgan muqaddas zaminda uchinchi Renessansga poydevor qo'yiladigan zamonda yashamoqdamiz.

“Bugungi kunda ko'p millatli xalqimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun, O'zbekistonning yangi Uyg'onish davrini yaratish yo'lida belini mahkam bog'lab, fidokorona mehnat qilmoqda. Bu yo'lda ulkan orzu-umidlar, katta rejalar bilan safimizga qo'shilayotgan yoshlarimiz — asosiy tayanchimiz va suyanchimizdir”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan

Jaloliddin Rumiyning bir hikmati doimo ilhombaxshdir: «Go'zal kunlar kelishini kutma, unga qarab bormog'ingni unutma». O'zbekistondagi yangi Uyg'onish ma'rifati ham ayni shu tamoyilga asoslanganini, ezgu niyyatlar amalga oshayotganini anglash esa yanada shijoat baxsh etadi. Taraqqiyot ilmga asoslanadi. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning Prezident sifatidagi dastlabki uchrashuvlaridan biri ilm ahli, olimlar bilan bo'lgani ham bejiz emas edi. O'shanda davlatimiz rahbarining aytgan so'zlari hamon eshitgan quloqlarni jaranglatadi: «Ilm-fan bilan shug'ullanish, yangi kashfiyot va ixtirolar qilish igna bilan quduq qazishdek gap. Shunday ekan, bu mashaqqatli sohada fidokorona mehnat qilayotgan olimlarimiz mehnati tahsin va rag'batga munosib». Bu — qadr, bu — ilmga e'tiborning yorqin namunasi edi.

XIV — XVI asrlardagi ikkinchi Sharq Uyg'onishi yoxud tarixda «Temuriylar Renessansi» deya nom olgan davrda ilmning qanchalik qadrlanganini, birgina misolda, «Temur tuzuklari»dagi ushbu jumalarni keltirish orqali isbotlash mumkin. Unda shunday yozilgan: «Kimning aql-shijoatini sinov tarozisida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini bilsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim». Aslida ham bilimli inson ilmning qadrini, olimning qadrini yaxshi biladi. Agar davlat rahbarining keyingi yillarda ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, Farmon va qarorlari, ilgari surayotgan ezgu tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak, O'zbekistonda yangi Ma'rifat Renessansiga mustahkam tamal toshi qo'yilayotganini anglaymiz. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati ana shu istakning ro'yobga chiqishiga to'liq asoslarni yaratmoqda. Buni birgina misolda, oliy ta'limga qamrovning bosqichma-bosqich oshirib borilayotganida ham ko'rish mumkin. Mana shu yaqin o'tmishga biz nazar tashlar ekanmiz: keyingi uch yilda oliy ta'lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga yetdi, qabul o'rinlari 66 mingtadan 181 mingtaga oshdi. Demak, har yili yuz mingdan ziyod yoshlar eng yorug' orzusi — o'qish istagiga erishishiga zamin yaratilmoqda.

Nazarimda, bu siyosatning zamirida yurt o'g'il-qizlarining barchasini ilmi qilish, ularning dunyo bilan bo'ylashishi uchun mustahkam poydevor qo'yish istagi yonayotgandek. Aslida ham bu xalq shunga munosibdir. Chunki uning o'tmishi, dunyoni o'zgartirgan aqlu zakovati, o'zining ilm ziyosi dunyo sharining narigi tarafini ham yoritgan ulug' ajdodlari bor.

Tarixdan ma'lumki, ajdodlarimiz yaratgan har ikki Uyg'onish davrida dunyo ilmi bizga juda katta turtki bo'lgan. Jahon taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab bergan birinchi Renessans davrida Xorazmda barpo etilgan Ma'mun akademiyasi o'z bag'riga daho mutafakkirlarni to'plab, dunyoning eng ilg'or ilmlarini o'zlashtirgani, shu asnoda, bilimdan ungan bilimlar nafaqat o'z mintaqasi, balki butun ahli jahon uchun namuna vazifasini o'tagani ham ayni haqiqatdir. Temuriylar yaratgan ilm maktablari ham ayni shu yo'ldan bordi. Bu davrda ham ilm o'rganishni istovchilar butun dunyodan oqib kela boshladi.

Bugun dunyoga yangi O'zbekiston nomi bilan balqiyotgan uchinchi Renessans g'oyasining jozibasi shundaki, u o'z atrofiga davlatni ham, jamiyatni ham, butun xalqni ham birlashtira oladi. Bu g'oyaning milliy g'oya o'laroq keng quloq yozishi esa, nazarimizda, barchamizning uning mazmunini chuqurroq anglashimizga, teranroq mushohada yuritishimizga bog'liq.

Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman — hurmatli otanonalar bu tashabbusni albatta qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'ladilar. Va bu ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar to'la qo'llab-quvvatlaysizlar», degan da'vatini qalb amriga aylantirolsak, o'ylaymanki, hayotbaxsh g'oyaning cheksiz qudratini o'z hayotimizda yorqin ko'ra boshlaymiz.

«Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur».

Shavkat Mirziyoyevning o'tgan yili 1 oktyabr — O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida ana shunday da'vat bor edi.

Bugun yangi O'zbekiston tarixiga yozilayotgan zarhal harflar xorijlik olimlar nigohidan ham chetda emas. AQShning Nyu-York shtatida yashaydigan olim, biologiya fanlari doktori, professor, akademik Efroim Gurman shunday deydi: «Prezident Shavkat Mirziyoyev dunyo davlatlari rahbarlari orasida birinchi bo'lib «Xalqimiz kelajakda emas, bugun ham yaxshi yashashi kerak», degan ulug' maqsad, ezgu vazifani ilgari surdi va buning yechimini ham topib berdi. Ayniqsa, uning uchinchi Renessans g'oyasi nihoyatda ajoyibdir. Sababi, bugungi ilmu fanga asoslangan, dunyoni faqatgina ilm bilan boshqarish mumkin bo'lgan zamonda shunday g'oyalargina qudratli kuch kasb eta oladi». Bugun globallashayotgan zamonda makon tushunchasi torayib bormoqda. Dunyoning narigi burchagida axborotni lahzada o'tmay bu nuqtasida ko'rish mumkin. Ammo shunisi muhimki, Vatan va uning istiqboli haqida qarashlar hech qachon toraygan emas.

Prezidentimizning mamlakatimiz kelajagini ta'lim va ilmu fanda ko'rayotgani, uchinchi Renessans g'oyasi milliy g'oya darajasiga ko'tarilgani, zamonaviy dunyoga yuzlanish hamda dunyo bilan tenglashmoq istagida ana shu Vatan va millat tuyg'usining yana bir jilvalanishini ko'rish mumkin. Bu tuyg'u xalqimizning qonida jo'sh urib turgan ma'rifatga tashnalik va o'sha olis o'tmishdagi buyuk Uyg'onish nasimlarining sog'inchi bilan mushtarakdir. Shunday ekan, dunyo sahniga yana yangi tamaddun bilan bo'ylamoqqa bu xalq ming bora haqlidir.

Uchinchi Renessans poydevorining mustahkam asosi bo'lib xizmat qiluvchi bugungi buyuk g'oyalarda ana shunday ulug' maqsadlar mujassamdir.

“Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev

Albatta, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh-o'n yil davom etmay, ancha katta va mashaqqatli davrni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, minglab iste'dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar nihoyatda zarur.

Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda ulug' niyatlar bilan poydevori qo'yilayotgan yangi Uyg'onish davrining yorqin sahifalarga boy buyuk tarixi yaratilmoqda.

Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Davlatimiz rahbari hozirgi davrni milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon deb e'lon qilinganligining zamiridaqat'iy ishonch va chuqur hikmat mujassam. Negaki keying 10 yilligimiz asl yuksalish va taraqqiyot davri bo'lishi muqarrar. Oxirgi yillarda qabul qilingan va albatta qilinajak qonunlar, farmon va qarorlar, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar taraqqiyotning yangi ufqalariga asos bo'ladi.

REFERENCES

1. Aziz va yagonamsan, Jonajon O'zbekistonim!. Mualliflar jamoasi. T.: Muharrir. 2018.
2. Bekmurodov M. va boshqalar. Harakatlar Strategiyasi asosida Jadal taraqqiyot va yangilanish sari. T.: G'ofur G'ulom NMIU. 2017.
3. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Shavkat Mirziyoyev.
4. Yangiz O'zbekiston gazetasi.
5. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
6. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning faoliyat xronikasi.
7. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat .Psixokorreksiya.T.:—Ijod press nashriyoti. 2019-yil.
8. Махкамов, У., Жуманова, Ф., & Равшанов, Ж. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШГА ТАЙЁРЛАШ. Academic research in educational sciences, (3), 815-830.
9. Gaynazarova G.A. Actual Problems of Continuous Qualification Improving of Preschool Educational Institution Tutors // Eastern European Scientific Journal.Ausgabe, ISSN 2199-7977, DOI 10.12851/EESJ201808. – Germany, 2018.– №4 – Pp.104-109. (13.00.00; №3)

10. Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. *Общество и инновации*, 2(11/S), 111-114.
11. Akramova, D. (2022). BO'LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
12. Eshchanova, G. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SOTSALIZATSIYASI. *Science and innovation*, 1(B8), 561-564.